

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Tarix fakulteti

Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi

Kafedra

“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” ta’lim yo‘nalishi 2 kurs
talabasi Zoirov Eldorning

JAMIYATIMIZ MAFKURASI XALQNI - XALQ
MILLATNI - MILLAT QILISHGA XIZMAT ETSIN

Mavzusida yozgan referati

Tekshirdi:_____

NAVOIY 2016

JAMIYATIMIZ MAFKURASI XALQNI - XALQ MILLATNI - MILLAT QILISHGA XIZMAT ETSIN

G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan baxsga kirishish, olishish mumkin.¹

Milliy mafkura - millatni birlashtiruvchi bayroqdir.

Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qayerdagi mafkuraviy bo'shliq, vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi ham tayin.

Insoniyat yangi asr bo'sag'asida turgan bugungi kunda turli xil eski va yangi mafkuralarning o'zaro kurashi har qachongidan ham ko'ra shiddatli tus olmoqda. Rang-barang, ba'zan bir-biriga mutlaqo zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o'rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib qonli to'qnashuvlar, ommaviy qirg'inlarga sabab bo'lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg'u-kulfatlar solmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyoda ikki qarama-qarshi qutb bardam topgan bo'lsada, turli xil maqsad-manfaatlarni ifoda etuvchi mafkuralar tortishuvi to'xtagani yo'k. Ochiq aytish kerakki, bu tortishuvlardan kuzlangan asosiy maqsad - inson, avvalambor yoshlar qalbini egallash, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi biror millat yoki xalqning ongiga, uning sezgi-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish, uni o'z dunyoqarashiga boysundirish, ma'naviy jihddan zaif va tobe qilish. Fikr qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ham ko'ra dahshatlidir.

Uzoq, tariximizdan ma'lumki, xar qanday zo'ravon bosqinchilar va yurtimizda hukmronlik qilmoqchi bo'lgan kuchlar yovuz niyatlariga erishish uchun avvalo milliy madaniyat va an'analarimizni yo'q qilish, shu yo'l bilan bizni ma'naviy jihatdan zaiflashtirishga, kuch-qudratimizni yo'qotishga harakat qilganlar. Bu haqiqatni hech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz kerak.²

¹ Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. - T., 1998. - 3-b.

² Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. - T., 1998. - 5-6.

Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko'proq kuchga ega. Eng qizig'i, shu bilan birga, kishini doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq, bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiq, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyin.

Eng dahshatlisi - fikr qaramligi, tafakkur qulligi.³

Odam o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, o'zi tayanib yashaydigan hayotiy-milliy qadriyatlarga, shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli mafkuralarning bosimiga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi tazyiqlariga bardosh berishi amrimahol.

Tabiatda ham, jamiyatda ham vakuum – bo'shliq bo'lishi mumkin bo'lmaganidek, mafkura sohasida ham bo'shliq vujudga kelishiga aslo yo'l qoyib bo'lmaydi.

Mafkurasiz odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotadi.⁴

Sir emas, ba'zan beozorgina bo'lib tuyulgan musiqa, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma'lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi.

Bugungi kunda g'oyani, fikrni taqlq bilan, ma'muriy choralar bilan yengib bo'lmaydi. **G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan baxsga kirishish, olishish mumkin. Ma'naviyatimiz qo'limizda yengilmas kuchga aylansin.**⁵

Jamiyatning, jamiyat ahlining mustahkam va ravshan mafkurasi bo'lmasa, o'z oldiga qoygan aniq bir maqsad-muddaosi bo'lmasa, u muqarrar ravishda inqirozga yuz tutadi.

Maqsad degani - xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo'lga boshlovchi bamisoli bir bayroq. Bu bayroq butun O'zbekiston xalqining ruhini, g'urur-iftixorini, kerak bo'lsa, qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' kuchdir. Davlatimizning, xalqimizning, el-yurtimizning maqsadi o'zining ulug'vorligi, xayotiyligi va haqqoniyligi bilan hammamizni jalb etadigan bo'lmog'i lozim.

³ Шу маҳба 6-бет.

⁴ Шу маҳба 6-бет.

Toki bu maqsad xalqni - xalq, millatni - millat qila bilsin, qo'limizda yeyngilmas bir kuchga aylansin.

Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman.

Sho'ro davrining mafkurasi, kommunistik dunyoqarash, agarki aslini surishtirsangiz, mohiyat e'tiboriga ko'ra, bizning turmush tarzimizga, xalqimizning tabiatiga tamoman begona edi. Shunga qaramasdan, kishilarning ongiga majburan singdirilgan bu soxta ta'limotning salbiy ta'siri xanuz sezilib turadi. Afsuski, biz bu sarqitlardan hali butkul xalos bo'la olganimiz yo'q.

Istiqlolga erishgan kunimizdan boshlab milliy mafkura, O'zbekiston jamiyatining milliy g'oyasini yaratish masalasi dolzarb bo'lib kelmoqda.

Albatta, mafkurani bir kun yoki bir yilda yaratib bo'lmaydi. Chunki mafkura shakllanadi, shakllantirib boriladi. Uning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish mumkin. Ammo bu tamoyillar real hayotda o'z o'rnini topmasa, bunday mafkura faqat qog'ozda bo'ladi, xolos. Shuning uchun ham, mening fikrimcha, mafkurani shakllantirish jarayonida, avvalambor. Mamlakatning bugungi hayoti, o'tmishi, kelajagi, butun taqdiri uchun qayg'uradigan, Vatan qismatini o'z qismati deb biladigan keng jamoatchilikning ilg'or dunyoqarash va tafakkuriga asoslanish lozim.

Milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unutilmas hissa qo'shgan olimu fuzalolarning mafkura va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida qoldirgan ilmiy merosi, falsafasi qarashlarini har tomonlama o'rganish darkor. Men bu o'rinda Abu Nasr Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi ulug' ajdodlarimizning shu mavzuga daxldor asrlarini nazarda tutyapman.

Mafkura poligonlari yadro poligonlaridan kuplidir.

Masalan, Forobiyning o'sha mashhur "Fozil odamlar shahri" asarini esga olaylik. Bundan ming yilcha muqaddam yaratilganiga karamasdan, bugungi o'quvchi ham bu asardan hozirgi hayotning murakkab muammolarini hal qilishda asqotadigan muhim fikr va yo'l-yo'riqlarni topa oladi.

Men milliy mafkura xususida bosh qotirayotgan olimlarimiz, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlariga yer yuzida insoniyat va davlatchilik paydo bo'lganidan buyon shakllangan jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini teran o'rganish, kishilik tarixining yuksalish va tanazzul davrlarini, taraqqiyotni ana shu inqirozlardan omon saqlab qoluvchi ijtimoiy-ma'-naviy omillarni har tomonlama tadqiq, etgan holda biron xulosaga kelishni tavsiya etgan bo'lur edim.

Sodda qilib aytganda, jamiyatimizning mafkurasi shu jamiyatning tayanchi bo'lmish oddiy inson va uning manfaatlarini ifoda etishi, xalqimizning bexatar, tinch-omon, farovon, badavlat turmushga erishishi uchun kuch-g'ayrat manbai bo'lishi lozim.

O'zbekistonning milliy mafkurasi mamlakatimizning mana shu mintaqada, yon-atrofdagi davlatlar orasida va jahon miqiyosida o'ziga munosib o'rinni, yana ham aniqroq, aytadigan bo'lsa o'zining ixtisosini to'g'ri va holisona anglab, shu asosda izchil harakat kilishimiz uchun xizmat etishi zarur.

Xo'sh, milliy g'oya, milliy mafkura nimalarni o'zida mujassamlantirishi va qanday talablarga javob berishi kerak?

Milliy mafkura. **Avvalambor**, o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qoyilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart.

Ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan xilma-xil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruhlarining intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'i nazar, ularning barchasil yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning dahlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari

chorlaydigan yagona g'oya - mafkura bo'lishi kerak.

Uchinchidan, milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshagan unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimasliq ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo holi bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo'lishi darkor.

To'rtinchidan, milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur.

Beshinchidan, u Vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oya bo'lishi kerak.

Mafkura – o'tmish va kelajak o'rtasidagi ko'prikdir.

Milliy g'oya, milliy iftixor kundalik mashaqqatli ishlarimizda va bunyodkorlik faoliyatimizda kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shib, haqiqatdan ham kelajagi buyuk davlat qurayotganimizga mustahkam ishonch bag'ishlab, ruhimizni baland, belimizni baquvvat kilishiga ishonaman.

Milliy mafkura vositasida el-u yurt birlashadi, o'z oldiga buyuk maqsadlar qoyadi va ularni ado etishga kadir bo'ladi.

Millatning, xalqning hamjihatligi esa har qanday taraqqiyotning garovidir.

Ta'lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.

Bizga meros bo'lib qolgan ta'lim-tarbiya tizimining ma'lum bir ma'qul jihatlari bilan bir qatorda uning eng nomaqbul tomoni shundan iborat ediki, uquv

jarayonida o'quvchi va talabalarni mustaqil va erkin fikrlashga yo'l qoymasliq har qaysi o'quv yurtini bitiruvchilarning bilimiga qarab emas, avvalo, ularning sobiq sovet tuzumiga va soxta g'oyalarga sadoqatini hisobga olib baholash va xayotga yo'llash tamoyili asosiy o'rinni egallar edi. Ko'p joylarda sifat o'rniga son ketidan quvish ustunlik qilardi. Ko'pchilik haqiqiy bilim yoki malaka orttirish maqsadida emas, amal-taqal qilib diplomli bo'lib olish ilinjida texnikum yoki institutlarga kirar edi. Bu tuzumdan bizga qolgan meroslar ichidagi shunga o'xshagan salbiy asoratlarni, afsuski, hozir ham sezib turibmiz.

Maqsadimiz - erkin shaxsni tarbiyalash. Kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari.⁶

Amir Temur bobomizning "Kuch - adolatda" degan mashhur ta'birini bugungi kunga nisbatan qo'llab aytadigan bo'lsaq men unga qo'shimcha qilib "Kuch - bilim va tafakkurda" degan bo'lardim. Kelgusi asrda bu tamoyil yanada kuchayadi va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladi. Binobarin, xalqaro maydonda biz boshqa mamlakatlar bilan sog'lom fikr musbaqasiga, ijodiy raqobatga kirishmog'imiz lozim bo'ladi. Bizning kelajagimiz mana shu musobaqa va raqobatga qay darajada bardosh bera olishimizga bog'liq. Uylaymanki, buning uchun millatimizning salohiyati ham, aql-zakovati ham yetarli.⁷

⁶ Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. - T., 1998. -22-b.

⁷ Шу маъба 24-бет.